



TWO APPROACHES IN CENTRAL ASIAN DIPLOMACY IN THE 16TH-17TH CENTURIES: IDEOLOGICAL-SEMIOTIC CONFLICTS AND ECONOMIC PRAGMATISM

Kojanazarov Bekpolat Sarsenbay uli

Master's student, Asia International University

bekpolatkuz@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20506105>

ARTICLE INFO

Received: 24th May 2026

Accepted: 30th May 2026

Online: 31st May 2026

KEYWORDS

Information-
psychological warfare,
diplomatic semiotics,
economic diplomacy,
trade pragmatism, War of
letters, Bukhara Khanate,
ambassadorial relations.

ABSTRACT

This article analyzes two contradictory yet complementary directions of the foreign policy of the Central Asian khanates (Bukhara and Khiva) in the 16th–17th centuries. The first pole highlights the uncompromising ideological and information-psychological wars with Safavid Iran, the "War of letters", and diplomatic semiotics (the language of gifts). The second pole analyzes the highly pragmatic, economic, and trade-based diplomacy established with Russia and China, which bypassed religious and ideological barriers. Based on primary sources and archival documents, it is scientifically substantiated that the region's rulers acted in foreign policy based on the real situation ("Realpolitik").

XVI-XVII ASRLARDA MARKAZIY OSIYO DIPLOMATIYASINING IKKI YONDASHUVI: MAFKURAVIY-SEMIOTIK ZIDDIYATLAR VA IQTISODIY PRAGMATIZM

Kojanazarov Bekpolat Sarsenbay uli

Osiyo Xalqaro Universiteti magistranti

bekpolatkuz@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20506105>

ARTICLE INFO

Received: 24th May 2026

Accepted: 30th May 2026

Online: 31st May 2026

KEYWORDS

Axborot-psixologik urush,
diplomatik semiotika,
iqtisodiy diplomatiya,
savdo pragmatizmi,
Maktublar urushi, Buxoro
xonligi, elchilik
munosabatlari.

ABSTRACT

Mazkur maqolada XVI-XVII asrlarda Markaziy Osiyo xonliklari (Buxoro va Xiva) tashqi siyosatining o'z-o'zini inkor etuvchi, ammo bir-birini to'ldiruvchi ikkita ziddiyatli yo'nalishi tahlil qilinadi. Birinchi qutbda – Safaviylar Eroni bilan olib borilgan murosasiz mafkuraviy va axborot-psixologik urushlar, "Maktublar urushi" va diplomatik semiotika (sovg'alar tili) yoritilgan. Ikkinchi qutbda – din va mafkuraviy to'siqlarni chetga surib, Rossiya va Xitoy bilan o'rnatilgan o'ta pragmatik, iqtisodiy va savdo-sotiqqa asoslangan diplomatiya tahlil qilingan. Birlamchi manbalar va arxiv hujjatlari asosida mintaqqa hukmdorlari tashqi siyosatda real vaziyatdan kelib chiqib ("Realpolitik") ish ko'rganligi ilmiy asoslab berilgan.



Kirish. XVI–XVII asrlar jahon tarixida Buyuk geografik kashfiyotlar davri bo'lib, an'anaviy "Buyuk Ipak yo'li"ning quruqlikdagi tarmoqlari o'z ahamiyatini pasaytira boshlagan palla edi. Ayni shu davrda Yevrosiyo qit'asida yirik "porox imperiyalari" (Safaviylar, Usmonliylar, Boburiylar va Rossiya podsholigi) shakllandi. Uzoq yillar davomida tarixshunoslikda Markaziy Osiyo xonliklari bu davrda dunyodan uzilib qolgan (izolyatsiya), deb hisoblanib kelingan. Biroq yangi davr tadqiqotlari shuni ko'rsatmoqdaki, Buxoro va Xiva xonliklari tashqi siyosatda passiv kuzatuvchi emas, balki murakkab diplomatik o'yinlarning faol ishtirokchisi bo'lgan.

XVI–XVII asrlar Markaziy Osiyo diplomatiyasining eng diqqatga sazovor jihati uning "Ikki qutbli" xarakterga ega ekanligidir. Agar xonliklar janubi-g'arbda (Safaviylar Eroni) o'ta radikal, murosasiz axborot-psixologik urush olib borgan bo'lsa, shimol va sharqda (Rossiya hamda Xitoy bilan) g'oyatda pragmatik, faqat iqtisodiy foydaga asoslangan savdo diplomatiyasini yuritgan. Ushbu maqolaning asosiy maqsadi – bir davlatning ayni bir davrda ikki xil keskin farq qiluvchi diplomatik yondashuvni (mafkuraviy urush va iqtisodiy pragmatizm) qanday amalga oshirganini dalillar va birlamchi manbalar asosida tahlil qilishdan iborat.

Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur maqola muammoli-xronologik, qiyosiy-tarixiy, shuningdek, madaniy antropologiyaning semiotik tahlil usullariga tayanadi. Birlamchi manbalar sifatida Mirzo Muhammad Haydar Dug'latning "Tarixi Rashidiy", Hofiz Tanish Buxoriyning "Abdullanoma",

Abulg'ozil Bahodirxonning "Shajarayi Turk" asarlaridan foydalanildi. Elchilar almashinuvi va diplomatik yozishmalar tahlilida A. Burtonning "The Bukharans", Z. Muqimovning huquqiy tadqiqotlari, shuningdek, M. Yo'ldoshevning Buxoro-Rossiya savdo-diplomatik aloqalariga doir Rossiya arxiv materiallaridan olingan fundamental asarlari metodologik asos bo'lib xizmat qildi.

Natijalar va muhokama. Axborot-psixologik urush va diplomatik semiotika (Eron yo'nalishi)-XVI asr boshlarida Movarounnahrda Shayboniylar, Eronda esa Safaviylar davlati tashkil topgach, ular o'rtasida uzoq asrlik qonli konfrontatsiya boshlandi. Bu ziddiyat faqatgina hudud (Xuroson) ustida emas, balki bevosita mafkura va legitimlik (Sunniiy va Shia qarama-qarshiligi) ustida bordi. Buxoro xonlari Safaviy shohlarini hech qachon qonuniy hukmdor sifatida e'tirof etmagan va diplomatiyada doimiy tahqirlash uslubidan foydalangan.

Bu holat o'rta asrlar diplomatiyasida "Siyosiy semiotika" (ramzlar tili) va "Axborot-psixologik urush" ning eng yorqin ko'inishi bo'lgan "Maktublar urushi"da namoyon bo'ldi. Tarixchi Mirzo Muhammad Haydar Dug'latning yozishicha, 1510-yildagi Merv jangidan oldin Shayboniixon Shoh Ismoil I ga maxsus maktub va elchi jo'natadi. Maktubda Shoh Ismoilni siyosiy kamsitib, "ota-bobongning kasbi bo'lmish darveshlikni qil" deya ultimatum qo'yadi. Eng qizig'i, xat bilan birga yuborilgan diplomatik sovg'alardir. Shayboniixon qimmatbaho buyumlar emas, balki darveshlarga xos bo'lgan kashkul (sadaqa yig'ish idishi) va hassa yuboradi. Semiotik nuqtayi nazardan bu



sovg'a: "Sen podshoh emassan, shuning uchun bu narsalarni olib, gadolik qilgin", degan o'ta og'ir diplomatik haqorat edi.

O'z navbatida, Shoh Ismoil xuddi shunday ruxiy zarba bilan javob qaytaradi. U Shayboniyxonga urchuq (ayollar ip yigiradigan asbob) va ayollar ro'molini yuborib: "Agar urushga jur'ating yetmasa, erkaklar ishiga aralashma, mana shu asboblarni bilan uyda o'tir", qabilida javob qaytaradi. Bu voqelik shuni ko'rsatadiki, diplomatiya doim ham do'stlik aloqasi bo'lmagan. Qabul marosimlarida ("Kornish") Safaviy elchilari ataylab eng pastki va kamsituvchi joylarga o'tqazilgan, ba'zan ulamolar fatvosi bilan jazolangan.

Iqtisodiy diplomatiya va pragmatizm (Rossiya yo'nalishi)-Agar janubda Eron bilan din va mafkura ustunlik qilgan bo'lsa, shimolda Rossiya bilan mutlaqo teskari – pragmatik va iqtisodiy siyosat olib borilgan. 1556-yilda Ivan Grozniy tomonidan Astraxan (Hojitarxon) xonligi bosib olinib, Volga daryosi orqali o'tuvchi "Shimoliy yo'lak" butunlay ruslar qo'lga o'tdi. Bu davrda na Buxoro, na Xiva xonligi ruslarning "g'ayridin" ekanligiga yoxud g'azot masalasiga e'tibor qaratdi. Iqtisodiy ehtiyojlar diniy kelishmovchiliklardan ustun keldi va "Tijorat diplomatiyasi" shakllandi.

Arxividosh olim M. Yo'ldoshevning tadqiqotlariga ko'ra, XVII asrda Buxoro va Xivadan Moskvaga muntazam ravishda tijorat elchiliklari qatnab turgan. Elchilarning vazifasi siyosiy ittifoq tuzish emas, balki bozorlarga bojsiz kirish huquqini beruvchi "Tarkhan" (Tarxonlik) yorliqlarini olish edi. Rossiya podsholari (Mixail va Aleksey Romanovlar) ham Markaziy

Osiyo elchilarini katta izzat-ikrom bilan kutib olishgan. Buxorolik elchilar Moskvaga zardo'zi to'nlarni, xitoy ipaklari, noyob qorako'l terilari olib borgan bo'lsa, u yerdan qimmatbaho mo'yna, po'lat va yirik ov qushlari (lochinlar) xarid qilishgan.

Pragmatizm shunchalik kuchli ediki, diplomatik missiyalar paytida hatto "inson savdosi va asirlarni ayirboshlash" doimiy kun tartibida turgan. O'rta Osiyo savdogar-elchilari o'z moliyaviy zaxiralari evaziga chegara hududlarida asir tushgan o'zbek va rus fuqarolarini sotib olib, siyosiy vositachi (mediator) vazifasini bajarganlar.

Xitoy bilan "O'lpon tizimi" va niqoblangan tijorati-Sharqiy yo'nalishda Xitoy (Min va Sin imperiyalari) bilan munosabatlarda ham tijorat diplomatiyasi ustun bo'lgan. Xitoy tashqi siyosati qat'iy Sinosentrizm g'oyasiga – barcha atrofdagi davlatlar Xitoy imperatorining tobelari, degan tushunchaga asoslangan edi. Unga ko'ra, chetdan kelgan har qanday elchilik "o'lpon" (tribute) keltiruvchi deb hisoblangan.

Qizig'i shundaki, Buxoro va Qashqar savdogarlari bu mafkuraviy kamsitishni juda yaxshi bilishgan, ammo iqtisodiy foyda ("Realpolitik") uchun bunga rozi bo'lishgan. Ular Xitoy bozoriga bojsiz kirish va imperatorning boy o'zaro sovg'alarini ("Peshkash") qo'lga kiritish uchun guruhlariga birlashib, o'zlarini "Buxoro xonining rasmiy elchisi" deb niqoblaganlar. Natijada xalqaro huquq nuqtayi nazaridan o'ziga xos "tijoratlashgan elchiliklar" (commercial embassies) paydo bo'ldi. Savdogarlar siyosiy elchi niqobi ostida karvon tortib borgan,



ularning maqsadi siyosiy bitim emas, toza moliyaviy daromad ko'rish edi.

Muhokama. XVI–XVII asrlarda Markaziy Osiyo hukmdorlari tashqi siyosatda fanatik yoki faqat his-tuyg'ularga asoslanib harakat qilmagan. Ular atrof-muhitdagi vaziyatni juda nozik his qiluvchi pramatik davlat arboblari bo'lgan. Nima uchun Safaviylarga qarshi murosasiz munosabatda bo'lingan-u, ammo boshqa e'tiqoddagi ruslar yoki xitoylar bilan do'stona savdo qilingan?

Muhokamalar shuni ko'rsatadiki, Safaviylar Eroni xonliklar uchun bevosita "legitimlik" va "hududiy daxlsizlik"ka tahdid tug'diradigan, xalqning ongini buzishi mumkin bo'lgan bevosita ekzistensial xavf edi. Shuning uchun Eron elchilari va xatlariga psixologik bosim o'tkazish davlat xavfsizligining garovi bo'lgan. Rossiya va Xitoy esa uzoq masofada joylashgan bo'lib, to'g'ridan-to'g'ri hududiy xavf solmasdi. O'sib borayotgan "porox imperiyalari" qamalida qolmaslik va davlat iqtisodiyotini ushlab turish uchun Movarounnahr davlatlariga iqtisodiy donorlar kerak edi. Shu sababli, Shimol va Sharq bilan qat'iy tijorat diplomatiyasi yuritildi.

Xulosa. XVI–XVII asrlarda Markaziy Osiyo diplomatiyasi ikki turli

yondashuvning mukammal sintezi bo'lgan degan xulosaga kelish mumkin.

Birinchidan, mintaqa diplomatiyasida "Siyosiy semiotika" alohida institut darajasiga ko'tarildi. Sovg'alar almashinuvi, maktublardagi iboralar ("Insho" san'ati) tinchlik o'rnatish vositasi emas, balki Eron kabi geosiyosiy raqiblarni ruxan sindirish, psixologik zarba berish quroli sifatida muvaffaqiyatli ishlatildi.

Ikkinchidan, tashqi siyosatda moslashuvchanlik (Adaptation) va qat'iy pragmatizm shakllandi. Buxoro va Xiva xonliklari Rossiya va Xitoy bilan aloqalarda mafkuraviy va diniy stereotiplarni yengib o'tib, davlat xazinasi va savdo xavfsizligini birinchi o'ringa qo'ydilar. Hatto savdogarlarga "elchi" maqomini berish orqali iqtisodiy to'siqlarni aylanib o'tish amaliyoti qo'llanildi.

Umuman olganda, ushbu davrdagi diplomatik munosabatlar mintaqaning o'z qobig'iga o'ralib qolmaganini, balki makiavellizm va pragmatizm qoidalariga asoslangan holda, kuchlar muvozanatini (Balance of power) saqlab turuvchi murakkab tashqi siyosat yuritganini ilmiy jihatdan tasdiqlaydi.

References:

1. Mirzo Muhammad Haydar. Tarixi Rashidiy / Mas'ul muharrir A. O'rinboyev. – Toshkent: Fan, 1996. – 728 b.
2. Yo'ldoshev M.Y. K istorii torgovix i posolskix svyazey Sredney Azii s Rossiey v XVI–XVII vv. – Tashkent: Nauka, 1964. – 124 s.
3. Muqimov Z. Shayboniylar davlati va huquqi (Tarixiy-huquqiy tadqiqot). – Toshkent: Adolat, 2007. – 184 b.
4. Burton Audrey. The Bukharans: A Dynastic, Diplomatic, and Commercial History, 1550–1702. – Curzon Press, 1997. – 624 p.



5. Zamonov A. Buxoro xonligi tarixi: Ashtarxoniylar davri. – Toshkent: Bayoz, 2021. – 256 b.
6. Xadduri M. War and Peace in the Law of Islam. – Baltimore: Johns Hopkins Press, 1955. – 321 p.
7. Semyonov A.A. Ocherk ustroystva sentralnogo administrativnogo upravleniya Buxarskogo xanstva. – Stalinabad, 1948. – S. 45-48.
8. Abulg'oziy. Shajarayi Turk. – Toshkent: Cho'lpon, 1992. – 188 b.